

ochilishini A.N. Ponomaryevlar taklif etgan usullar yordamida o'rganildi. Chang donachalarining hayotchanligi va fertilligi I.P. Diakonning yodli asetokarmin usulida o'rganildi. Ko'p yillik o'simliklarda urug' mahsuldorligi T.A. Rabotnov, O.A. Ashurmetov usullarida aniqlandi. Kuzgi ekish oldidan tajriba maydonining 1 m² qismiga 70-80 gr fosfor o'g'iti solinadi. Kuzda Tirnoqgul urug'larini chuqur ekilmasdan ustini 1-2 sm tuproq bilan ko'mib qo'yiladi. Tirnoqgul kuzda ekilganda aprel oylarida maysalari unib chiqadi. Baxorda tajriba maydonining 1 m² qismiga 10-20 kg maxalliy o'g'it solinadi. Tuproq harorati 20-22°C bo'lganda qator oralari 60 sm qilib 2-3 sm chuqurlikda o'simlik urug'lari ekib chiqiladi va urug'lar 7-8 kundan keyin unib chiqishni boshlaydi. Tirnoqgul unub chiqqandan keyin, paykallar o'toq va yagona qilinib, tuplar orasi 15-20 sm masofada har bir uyaga 1-2 tadan o'simlik qoldiriladi.

Xulosa. Kalendula asosidagi dorilar juda samarali va kuchli bo'lgani sababli, o'z-o'zini davolashni butunlay bekor qilish kerak. Bunday terapiyani faqat malakali shifokor buyurishi mumkin. Masalan ayollar homiladorlik paytida ko'plab davolovchilar homiladorlikni qo'zg'atmaslik uchun ushbu o'simlikni butunlay yo'q qilishni tavsiya qiladilar. Emizishda, kalendula asosidagi preparatlardan (spirtli ichimliklarsiz) foydalanishga ruxsat beriladi: emizikli onada turli xil nafas olish kasalliklarini davolashda: sinusit, bronxit, tonsillit, yo'tal va burun oqishi, shamollash, faringit va sinusit. Laksatif sifatida gullarni tayyorlash ham mashhur. To'pgullaridan har xil tabletkalar tayyorlanadi. Chet ellarda gultojbarglaridan bo'yoq olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xojimatov K.X., Xojimatov O.K. "O'simliklar hom-ashyosi resurslari" O'quv qo'llanma. Guliston 2007.- 54b.
2. Xamidov A., Nabiyeu M., Odilov T. "O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi". Toshkent "O'qituvchi" 1987. -328b
3. Xamidov G'.H., Mahsudova R.S., Mahmudov M.H. "O'zbekiston o'simliklari" Toshkent "O'qituvchi". 1992 -244b

UO'K: 633.13.19

OZUQABOP EKINLARDA AYRIM XO'JALIK BELGILARI BO'YICHA OLIB BORILGAN SELEKSIYA ISHLARI

B.D.Allashov-ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, q.x.f.n., K.I.X.,
S.G'.Jamolov-bo'lim boshlig'i

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti, allashev-b@mail.ru

Annotasiya. Keyingi yillarda yerlardan samarali foydalanish, bir maydondan ikki marta hosil olish hisobiga har bir gektar yerdan yetishtirib olinadigan ozuqa birligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki tritikale va suli ekinlari kuzgi oraliq ekinlarining asosiy komponentlaridan hisoblanadi. Shu sababli tritikale va suli ekinlarida seleksiya ishlarini olib borish, yangi navlarini yaratish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu maqolada suli va tritikaleda olib borilgan seleksiya ishlari natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Chorvachilik, ozuqa bazasi, ozuqabop ekinlar, kuzgi oraliq ekinlar, nav, tanlash, suli, tritikale, urug'.

Summary. In recent years, much attention has been given to increasing the amount of feed grown per hectare of land through efficient land use and double harvesting from the same area. It is known that tritikale and oats are the main components of autumn intercrops. Therefore, it is important to carry out breeding work in tritikale and oat crops and create new varieties. This article presents the results of breeding work on tritikale and oats.

Key words: *Livestock breeding, forage base, forage crops, autumn catch crops, variety, selection, oats, triticale, seeds.*

Kirish. Respublikamiz qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotlari ulushida chorvachilik sohasi ham alohida o'rin egallab, u xalqimizni qimmatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli chorvachilikni yanada rivojlantirish, qishloq xo'jalik hayvonlari mahsuldorligini oshirish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirib borish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Buning uchun esa sohada mustahkam ozuqa bazasini yaratish, mollarni to'la qiymatli oziqlantirish bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ozuqabop ekinlar qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha tahlil qilinganda ko'k massa hosildorligi tritikalening Prag serebristiy navida – 482,3 s/ga, raygrasning Kowinmaster navida – 427,7 s/ga, sulining O'zbekisto keng bargli navida – 387,7 s/ga va arpaning Bolg'ali navida – 387,7 s/ga bo'lganligi kuzatilgan [2].

Respublikada 2019 yilda ozuqa bazasini rivojlantirish maqsadida barcha toifa xo'jaliklaridagi jami 342,7 ming gektar (shundan 208 ming gektar chorvachilik subyektlarida) asosiy maydonlarga jumladan, 161,2 ming gektar beda, 50,5 ming gektar don uchun makkajo'xori, 123,1 ming gektar silos uchun makkajo'xori va 7,9 ming gektar xashaki lavlagi ekinlari ekilgan. Shuningdek, mamlakatimizda 2 marta hosil olishni imkoniyati bo'lganligi sababli iyun-iyul oylarida takroriy ekin sifatida 230 ming gektar maydonga makkajo'xori ekilgan [4].

Tadqiqot maqsadi. Ozuqabop ekinlardan suli va tritikale ekinlarida seleksiya ishlarini olib borish. Tritikale va sulining yangi liniyalari bo'yicha ayrim qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganish.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotda umumiy agrotexnikaviy usullardan foydalanilgan. Tadqiqot masalalarini o'rganishda umum agrotexnikaviy usullardan: urug', suv, dorilar xarajati, hosildorlik, va uning sifati o'rganildi.

Tadqiqot natijalari. Hozirgi kunda yer yuzida suli ekini taxminan 17 mln gektar atrofida maydonda ekiladi va bu ekin ko'proq G'arbiy Yevropa, AQSh va Kanada davlatlarida keng tarqalgan ekin turlaridan hisoblanadi. Sulining jahon bo'yicha o'rtacha don hosildorligi 19,5 s/ga ni tashkil etadi. Suli ham qadimiy ekinlardan hisoblanib, Yevropada eramizdan 1500-1700 yillar ilgari ham ma'lumligi haqida tarixiy ma'lumotlar mavjud. Suli otlar, yosh mollar va parrandalar uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi.

Sulining somoni va poxoli boshqa donli ekinlarnikiga qaraganda chorvachilikda yaxshi oziqliligi bilan qimmatlidir. Sulining doni, somoni yoki ko'k massasi chorva mollari uchun to'yimli ozuqa sifatida ko'p ishlatiladi. Sulini turli muddatlarda ekib, mo'l hosil olish mumkin. Bu esa chorva mollarini to'yimli ozuqa bilan ta'minlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda sulining 70 ga yaqin turi mavjud bo'lib, ular orasida ko'p yillik va bir yillik, madaniy va yovvoyilari bor. Mavjud 70 yaqin turlardan faqat 11 tasi amaliy ahamiyatga ega. O'zbekistonda ekiladigan sulilar ikkita turga mansub: ekma suli (*Avena sativa* L.) va Vizantiya sulisi (*Avena vizantina* Koch.). Undan tashqari qum suli (*Avena strigosa* Shreb.) va yovvoyi suli (*Avena fatua* L.) lar begona o't sifatida g'alla ekinlar orasida uchraydi. Yovvoyi sulilarda don asosi yo'g'onligi sababli urug'lar erta to'kiladi. Ularda gul qipig'i qalin tuklar bilan qoplangan va unda dag'al rivojlangan qiltiq bor va u namlikka tegsa buralib tuproqqa kirib ketadi.

Institut tajriba xo'jaligida sulining yangi tizmasi sinash ko'chatzori tashkil etildi va ayrim qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha o'rganildi. Ushbu ko'chatzorda agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida olib borildi, 100 ta o'simlik bosh poya balandligi bo'yicha o'rganildi (1-jadval).

1-jadval

Sulining yangi tizmasi boshpoya balandligi bo'yicha ko'rsatkichlari

Ekin turi	k=10 sm			n	$X \pm S_x$	δ	Cv %
	151-160	161-170	171-180				
Sulining yangi tizmasi	10	76	14	100	165,4 $\pm$ 0,5	4,9	2,9

Yangi tizma boshpoya balandligi bo'yicha o'rganilganda 1,5 m dan 1,8 m gacha bo'lgan o'simliklar uchradi. Ularda o'rtacha ko'rsatkich 165,4 sm ni tashkil qildi.

Tritikale birinchi marta insoniyat tomonidan 1875 yilda bug'doy va javdarni chatishtirish natijasida olingan boshqoli don ekinidir. Shundan uzoq yillar davomida olimlarni asosiy qiziqtirgan ekinlardan biri bo'lib qoldi va yuqori darajada rivojlanmoqda. Seleksiya jarayonlari yaxshi yo'lga qo'yilgan ilmiy tadqiqot institutlari yangi navlar yaratib ushbu navlar hosildorligi va bir qator belgilari bo'yicha bug'doy navlaridan ustunligi bilan ajralib turadi.

Polshaning sovuqroq va Yevropaning namgarchilik mintaqalarida ekilayotgan kuzgi yuqori hosilli tritikale navlari keng maydonlarda g'alla bilan almashlab ekishda asosiy o'rinni egallab kelmoqda (FAO report).

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 3 mln gektardan ortiq maydonlarda tritikale yetishtirilmoqda. Tritikale dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yetishtirilishiga qaramasdan asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bu Yevropadadir. 2002 yilda taxminan 88 foiz tritikale Yevropada, 9 foiz Osiyoda va 3 foiz Okean orti mamlakatlariga to'g'ri keladi (FAO 2003).

Tritikale – oraliq ekinlar ichida eng ko'p ozuqaviy qiymatga ega ekin sanaladi. Tritikale urug'i 6–12°C da yaxshi ko'karib chiqadi, yaxshi qishlaydi, sovuqqa chidamli, ildiz tizimi yaxshi rivojlanadi. Suvga eng talabchan davri – naychalashdan boshqoq chiqarishgacha. Bu davrda nam yetarli bo'lmasa, boshog'i kichik va kam hosilli bo'lib qoladi. Tritikale bug'doyga o'xshab o'z-o'zidan changlanuvchi hisoblanadi. O'sib rivojlanishida bug'doy, javdar, arpa va boshqa boshqoli ekinlar singari unib chiqish, tuplash, naychalash, boshqolash, gullash, sut pishish, mum pishish va to'liq pishish fazalarini o'taydi. Urug'lari 3–4°C da una boshlaydi. Unib chiqishi uchun o'rtacha maqbul havo harorati 20–22°C hisoblanib, 6–8 kunda unib chiqadi. Nihollar unib chiqqandan so'ng, 34–37 kunda tuplanish sodir bo'ladi. O'zbekistonda tritikale asosan kuzda tuplaydi va bir tup o'simlikda 2–6 ta poya hosil bo'ladi. O'simlik tup soni kam bo'lganda tuplanish kuchayadi. Kuzgi tritikale -18–20°C sovuqqa bardosh beradi.

Unib chiqqandan keyin 140–145 kunda naychalash davriga o'tadi. O'simlikning namlikka eng talabchan davri naychalash davridan boshlanadi. Tritikale 154–163 kunda boshqolab, 161–176 kunda gullaydi. Boshqolarida sut pishish 184–202 kunda amalga oshadi. Ko'k massaga o'rish uchun mutaxassis tomonidan o'rganiladi va o'rishga ruxsat beriladi. O'simlik unib chiqqandan 196–218 kunda mum pishish davriga o'tadi. Pishish davriga kirganligi tekshirib boriladi. To'liq pishib-yetilishi uchun 206–225 kun kerak bo'ladi.

Tritikale bo'yicha seleksiya ishlari ko'p yillardan beri olib boriladi. Institut tajriba dalasida tritikalenining yangi tizmasi bo'yicha sinash ko'chatzori tashkil etildi. Sinash ko'chatzorida 100 ta o'simlik bosh poya balandligi bo'yicha o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

Tritikalening yangi tizmasi boshpoya balandligi bo'yicha ko'rsatkichlari

Ekin turi	k=10 sm			n	$X \pm S_x$	δ	Cv %
	171-180	181-190	191-200				
Tritikale yangi tizmasi	7	84	9	100	185,2 $\pm$ 0,4	4,1	2,1

Boshpoya balandligi bo'yicha o'rganilganda 1,5 m dan 2,0 m gacha bo'lgan o'simliklar uchradi. Ularda o'rtacha ko'rsatkich 151,2 sm ni tashkil qildi, variatsiya koeffitsiyenti 2,1 foizga teng bo'ldi.

Xulosa. Institutda olib borilgan ko'p yillik seleksiya ishlari natijasida yangi sulining bitta va tritikalening bitta tizmalari yaratildi. Yaratilgan ushbu tizmalar joriy yidan Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markaziga sinov uchun taqdim etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdukarimov D.T., Gorelov Ye.P., Botirov X.F. O'zbekistonda oraliq ekinlar / Ozuqa yetishtirish (darslik), -Samarqand, 1995. -126-135 b.

2. Boboyev F.G., Elmurodov A.B. Tritikale – muhim oraliq va ozuqa ekini. “Respublikada chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Chorvachilik va parrandachilik ilmi-tadqiqot instituti Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent 2019 yil. 278-280 betlar.

3. Горбунов В.Н., Шевченко В.Е. Селекционные достижения по тритикале в научных центрах России и ближайшего зарубежья ж.Земледелие и растениеводство. 2015 Т.29 № 4 стр.24

4. Zulfiqarov M.X. Chorvachilikda ozuqa bazasini mustahkamlash, ozuqa ekin maydonlaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish. “Respublikada chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Chorvachilik va parrandachilik ilmi-tadqiqot instituti Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent 2019 yil. 229-231 betlar.

5. Iminov A.A., Umarova Z.T., Aliqulova U. Takroriy, oraliq va siderat ekinlarning tuproq unumdorligi va g'o'za hosildorligiga ta'siri. / Agrar sohani barqaror rivojlantirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. II ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 21 may 2018 yil. 21-23 betlar.

UO'K: 633.33.31/37

OZUQABOP EKINLARNING ISSIQQA VA SUV TANQISLIGIGA BARDOSHLI NAV, NAMUNALARINI TANLASH

B.D.Allashov-ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, q.x.f.n., K.I.X.,
S.G'.Jamolov-bo'lim boshlig'i

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti, allashev-b@mail.ru

Annotasiya. Keyingi yillarda anomal issiq, suv tanqisligi kabi dolzarb muammolar uchramoqda. Bunday sharoitlarda tabiiyki, ozuqabop ekinlar hosildorlik imkoniyatlari pasayib ketadi, har bir gektar yerdan yetishtirib olinadigan ozuqa birligi kamayib ketadi. Bu esa o'z navbatida chorva molari ozuqa bazasi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatlarda suv tanqisligiga va issiqqa bardoshli ozuqabop ekinlarning nav yoki namunalarini sinash va tanlash dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada issiqqa va suvsizlikka bardoshli bo'lgan ozuqabop ekinlarni ekib o'rganish, tanlash bo'yicha natijalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Chorvachilik, ozuqa bazasi, ozuqabop ekinlar, suv tanqisligi, issiq iqlim sharoiti, xorijiy nav, tanlash, urug'.

Summary. In subsequent years, pressing problems will arise, such as heat waves and water shortages. Naturally, under such conditions the productivity of forage crops decreases and the number of fodder units grown per hectare of land decreases. This, in turn, negatively affects the food supply of animals. In such situations, it is important to test and select varieties or accessions of forage crops that are resistant to water stress and heat. This article presents the results of the study and selection of forage crops that are resistant to heat and drought.

Key words: Animal husbandry, forage supply, forage crops, water deficit, hot climatic conditions, foreign variety, selection, seeds.